



UDK: 634.574

PISTA BIOLOGIYASI VA MORFOLOGIYASI, AREALI, TURLI TUPROQ-
IQLIM SHAROITLARIGA MOSLASHUVCHANLIGI.

Boysunov Nurzod Bekmurodovich

q/x.f.f.d

Bekzod Begmatov Elmurod o'g'li

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktaranti.

Annotatsiya: Maqlada, hozirgi kunda O'zbekistonda ko'paytirilishi qiyin bo'lgan noyob mevali o'simliklardan pistani ko'paytirish, uni hosilga kirish mudadtini qisqartirish, mahsulorligini oshirish haqida bayon etiladi. Bundan tashqari pistani kelib chiqish markazlari tarqalishi o'stirish-parvarishlash texnologiyasi haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Pista morfologiyasi, biologiyasi, tarqalish areali, turlari va navlari, Orzu, Tog' marvaridi, Sharq marvaridi, Albena, Tog' malikasi.

**БИОЛОГИЯ И МОРФОЛОГИЯ ФИСТАШКИ, АРЕАЛ, СОРТ
ПРИСПОСОБЛЕННОСТЬ К ПОЧВЕННЫМ И КЛИМАТИЧЕСКИМ УСЛОВИЯМ**

Аннотация: В статье рассказывается, как вывести фисташку из редких плодовых растений, трудно воспроизводимых в условиях Узбекистана на сегодняшний день, как сократить срок ее вступления в урожай, как повысить ее продуктивность. Кроме того, даны сведения о технологии возделывания и возделывания очагов происхождения фисташки.

Ключевые слова: Фисташка морфология, биология, ареал, виды и сорта, "Orzu, Tog' marvaridi, Sharq marvaridi, Albena, Tog' malikasi"

**BIOLOGY AND MORPHOLOGY OF PISTACHES, AREA, VARIETY
ADAPTABILITY TO SOIL AND CLIMATE CONDITIONS.**

Abstract: The article describes how to breed pistachios from rare fruit plants that are difficult to reproduce in Uzbekistan today, how to reduce the period of its entry into the harvest, and how to increase its productivity. In addition, information on the technology of cultivation and cultivation of pistachio centers of origin is given.

Key words: Pistachio morphology, biology, distribution area, types and varieties, "Orzu, Tog' marvaridi, Sharq marvaridi, Albena, Tog' malikasi"

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Respublikamizda mevachilikni jadal rivojlantirish, tuproq unumdarligini ko'tarish, meva ekinlari hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash

hamda ulardan qayta ishlash sanoatida tayyorlanadigan mahsulotlarni ko'paytirishga, xalqimizning mevaga bo'lgan talabini to'la qondirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonning 3.3.-bandi "paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerkarda kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish...." muhim strategik vazifalardan qilib belgilandi. Hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish hamda meva-sabzavot ekinlarini yetishtirishni uzlusiz zanjirni shakllantirishni ko'zda tutuvchi meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usulini joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388-son farmoni soha rivojida muhim o'rinni tutmoqda.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda aholi jon boshiga kuniga kamida 330-400 g yoki yiliga 115-120 kg meva, shundan 15 kg uzum va 10 kg rezavor-meva yetishtirilishi kerak. O'zbekiston tibbiyot olimlari respublika aholisining uzum iste'mol qilish normasini 25 kg ga oshirishni va bunga qo'shimcha yana 10-11 kg quritilgan mevalar iste'mol qilishni tavsiya qiladi.

Lekin, bugungi kunda aholi jon boshiga yil davomida 94 kg meva, shundan 12 kg uzum ishlab chiqarilmoqda. Bu ko'rsatkich AQSH, Italiya, Ispaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda 120-230 kg ni tashkil etmoqda.

Baland o'sadigan meva daraxtlari (o'rik, yong'oq, nok va boshqalar) shamol to'sqich vazifasini ham o'taydi. Shuning uchun ular o'rmon daraxtlari bilan bog'larni himoya qilish vositasi sifatida ham ekiladi. Bu xildagi meva daraxtlari aholi yashaydigan punktlarni qum va qor ko'chkilaridan saqlaydi. Deyarli barcha meva daraxtlari asal beruvchi bo'ladi. Bog'lardan ko'p daromad olinadi, hosil beradigan 1 hektar bog'dan o'rtacha 525-780 ming so'mgacha sof daromad olish mumkin.

Metod va metadalogiya. Tadqiqot metodologiyasi asosan eksperimental-tajriba metodiga asoslangan. Asosiy ishlar laborotoriya sharoitida olib boriladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot usullari in vitro usuli hamda dala tajriba usullariga tayanadi. Bunda asosiy usullar selleksiyaning mikriklonal usuliga asoslanadi. Apikal meristema asoida yetuk o'simlik olish tadqiqoti o'tkazildi.

Tadqiqotlar obyekti: O'zbekistonda yetishtiriloyotgan Orzu, Tog' marvaridi, Sharq marvaridi, Albena, Tog' malikasi navlari hamda pistaning introduksiya qilingan istiqbolli Ahmadiy va xanjariy navlari.

Tadqiqotning predmeti: Qadimdan sug'oriladigan sho'rланмаган och tusli bo'z tuproqlar sharoitida takroriy ekin sifatida makkajo'xori nav-duragaylar to'plamini kompleks baholash, ajratilgan nav va geterozisli duragaylarni har xil sug'orish tartibi va o'g'itlash meyorlarida ekib, o'simlik shakllanishi, mahsuldarligi, don va silos massa hosildorligi, don sifati hamda saqlanuvchanligini aniqlab, yuqori sifatli saqlanuvchan



hosilni taminlaydigan sug'orish tartibi, o'g'itlar meyorlari kabi tadbirdarni belgilashdan iborat.

O'rta Osiyo respublikalarida dunyodagi eng yirik yovvoyi pistazorlar joylashgan. Ularning maydoni qariyb 300 ming hektarni tashkil etadi. Pistazorlar bilan qoplangan maydonlarning 42% Tojikistonda, 33% Qirg'izistonda, 15% Turkmanistonda va 10% O'zbekistonda joylashgan.


Xandon pistaning butun areali shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa tomon to'rt tog' tizmasi (Tyan-Shan, Pomir-Oloy, Paropamiz va Turkman-Xuroson tog'lari) hududida joylashgan.



Arealning shimoli-g'arbiy chegarasi markaziy Tyan-Shanda Issiqko'l yaqinida joylashgan bo'lib, shimoliy qismi Qirg'iziston tog' tizmasining janubiy tog' yonbag'ridan o'tadi. Arealning janubiy chegarasi Afg'oniston hududidan, Hindikush tog'larining shimoliy tarmoqlari, Paropamiz, Hirotdan biroz janubda o'tadi; janubi-g'arbiy qismi – Eron, Xuroson tog' yonbag'irlarida, g'arbiy qismi – g'arbiy Kopetdog'da, Sumbar va Chandir daryolari oralig'ida joylashgan, janubi-g'arbiy qismi esa Pomir-Oloy tizmasining Vanch tog' tarmog'igacha yetadi.

O'rta Osiyoda pistazorlar dengiz sathidan 500-600 dan 1400-1500 (1600) m. gacha balandlikda joylashgan. Undan yuqorida, 1700-1800 (2000) m. gacha bo'lgan balandlikda odatda pista daraxtlari guruhlari va yakka daraxtlar uchraydi, ammo bu yerlar daraxtlar uchun maqbul joy emas. Arealning janubiy qismida Paropamiz tog'larida (Afg'oniston) xandon pista hatto 2700 m balandlikda ham uchraydi. Bu balandlik pista daraxti uchun eng yuqori nuqta.

O'zbekiston hududida xandon pista Farg'ona vodiysini o'rab olgan tog' tizmalarida: Chotqol, Qurama, Farg'ona tog' tizmalarida, undan so'ng O'zbekistonning janubiy tizmalari: Karjantov, Pskem, Ugom- Chotqol tog' tizmalarini va nihoyat, eng g'arbiy nuqtasi Tyan-Shan – Nurota va Pistalitovda uchraydi. O'zbekiston janubida – Kuhitangtov va Bobotog' tog' tizmalarida pistazorlar mavjud.



Ilmiy manbalarda pistazorlarning o'simlik tipologiyasidagi o'rnnini belgilashga bag'ishlangan yondashuvlarda ayrim tafovutlar uchraydi. Bundan tashqari, ayrim mualliflar pistani hatto o'rmon hosil qiluvchi turlar qatoriga ham kiritishmaydi.

Pista (*Pistacia*), xandonpista pistadoshlar oilasiga mansub buta yoki daraxtlar turkum i,yong'oqmevali daraxt. 300 yilgacha yashaydi. 20 dan ortiq turi bor. Janubiy Yevropa, G'arbiy, O'rta va Sharqiy Osiyoda, Shimoliy, Sharqiy Afrika va Markaziy Amerikada o'sadi. O'rta Osiyoda yovvoyi hoddha o'sadigan chin Pista (*P. vera*) va to'mtoq bargli Pista (*P. mutica*) turlari bor. Bo'yi 2,5–10 m, shox-shabbasi tarqoq, 10–12 m kenglikda. Pista ikki uyli o'simlik, —40° sovuqqa chidaydi. Aprel—may boshlarida dastlab erkak, so'ngra urg'ochi daraxtlari gullaydi, guli murakkab ro'vaksimon to'pguldan iborat, shamol yordamida changalanadi. Mevasi bir urug'li danak (pista). Pistasi avgust—sentabr pishadi. Qobig'i yupqa, qattiq, yetilganda ba'zan uchidan yoriladi. Mag'zi yashil, mazali, tarkibida 63% gacha moy, 22% oqsil, 7% gacha uglevodlar, V guruhi vitaminlari, A provitamini bor; asosan, qovurilgan holda yeyiladi, qandolatchilikda ishlatiladi. Pista lalmi yerlarda 10—12, sug'orma yerlarda 7—8-yili hosilga kiradi. Yovvoyi holdagilari 15 kg gacha, payvand qilingan 8—10 yillik daraxtlari 30–45 kg meva beradi. Pista barglarida paydo bo'ladigan g'uddalarda tanni (30—40%), bo'yoq moddalari bor. Pista qurg'oqchilikka chidamli. Urug'idan va payvandlab, bachkisidan parhish qilib ko'paytiriladi. Pista yog'ochi duradgorlikda qadrlanadi. O'zbekistonda pistani ekib o'stirish ishlari 1937-yildan Bobotog' (Surxondaryo viloyati) tog'larida boshlangan, Kattaqurg'on suv ombori atroflarida 2 ming ga dan ortiq pista zorlar tashkil etilgan. Respublikada urug'idan ekib o'stirilgan pistazorlarning umumiyligi maydoni 80 ming ga dan ko'proq (2003). O'zbekiston o'rmonchilik ilmiy tadqiqot institutida, pistaning 6 navi yara-tilgan, 30 dan ortiq pista navlari kolleksiyasi barpo etilgan.

Asosiy zararkunandalari: pista qurti va pista qalqondori.

Jahon pistachiligini o'rganish natijasida har bir hududning o'ziga xos pista navlari borligini kuzatish mumkin. Bu turliu iqlim zonalariga moslashgan pista avlodlari demakdir. Xususan quytdagilarni misol qilib ketirishimiz mumkin:

Turkiyada ekiladigan asosiy navlar: Antep, Uzun, Xalebi, Ayimi.



**Spanish international scientific online conference
PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE**



Eron yetishtiriladigan pista navlar esa quydagilar: Akbariy, Ahmadiy, Xanjariy, Bodomiy, Fandugi, Kala-guchi, Miravi, Mumtoz.

O'zbekistonda yetishtiriladigan navlar: Albina, Zorka, Tog' marvaridi, Dangarinka, Tog' malikasi, Orzu, Sharq marvaridi.

Pistaning qishga chidamlı turları: Xitoy; Atlantika; Zerikarli.

Eng samarali navlar: "Kerman"; "Ahmad Og'ay"; "Orzu".

Navlar o'sishi va rivojlanishining biologik o'ziga xosliklari

v-shakining kodi	Nomlanishi	Mevalar								Mas'zidagi miadori %			Qo'llanilishi sohalari
		Mevanining og'irligi g	Mevanining olchami mm	Olin-digan maz'si %	Vorilgan danaklar ulushi %	Qobig'ining choki bo'yib shoxliganligi	Mag'zining ta'mi	Qobig'ning rangi	Oqand-modda-lari	Moz-lar	Oqasil-lar		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	

O'rta Osivo xos navlar

S-11 «A»	Albina	0,88	17×10×9	54	80	Bir tomonlama chokning 1/3 qismigacha	Biroz shirin	Oqish	5	59	11	Oziq-ovqat va farmasevtika sanoti
S-20	Gornaya iemchuiuna	0,98	19×13×12	50	90	Ikki tomonlama chokning 1/3 qismigacha	Chuchukroa	Och kulrang	5	57	13	Oziq-ovqat va farmasevtika sanoti
S-172	Orzu	0,98	19×15×9	54	97	Ikki tomonlama chokning 1/3 qismigacha	Biroz shirin	Och kulrang	4	59	12	Oziq-ovqat va farmasevtika sanoti
521-P	Uzbekistan	1,15	29×14×11	52	90	Ikki tomonlama oxirigacha	Biroz shirin	Oqish	6	55	14	Desertza oidi

Introdutsivalangan navlar

A-56	Urojavnaya	1,20	19×12×12	55	100	Ikki tomonlama oxirigacha	Biroz shirin	Oqish	6	58	11	Universal
A-99	Ansheronskaya	1,40	23×14×13	54	90	Ikki tomonlama oxirigacha	Biroz shirin	Oqish	5	58	12	Universal
SI-5	Zorka	1,45	23×13×12	55	100	Ikki tomonlama oxirigacha	Biroz shirin	Oqish	6	58	11	Desertza oidi
SI-10	Sitora	1,25	19×13×12	55	100	Ikki tomonlama oxirigacha	Chuchukroa	Och kulrang	4	59	12	Oziq-ovqat va farmasevtika sanoti

Navlar o'sishi va rivojlanishining biologik o'ziga xosliklari



**Spanish international scientific online conference
PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE**



Nav-shaklning kodi	Nomlanishi	O'vidagilar boshlanishining fenologik muddatlari (chillaki, o'rta, kechki):		Shox-shabbasi rivojlantishing o'ziga xosligi	O'vidagilarga chidamlilik:		Meva tugishining davriyligi	Madaniy lashtirilganidan so'ng 5-7 yillarda hosildorligi	Kelib chiqishi
		gullashi	yetilishi		Zararkunun-dalarga va kasalliklarga	Ourg'ochilik-ka va gamm-sellarsza			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

O'rta Osivo xos naylar

S-11 «A»	Albina	O'rta (12-15.IV)	O'rta (II dekada VIII)	Piramida-simon-zich	Chidamlili	Nihovatda chidamlili	2 yil hosil beradi, 1 yil hosil bermaydi	1,1	Janubiy Tojikistonning tabiiy ekmlari (Tereklit tizmasi), d.s. dan 900-1100 m
S-20	Gornaya jemchujina	Kechki (20-22.IV)	Kechki (III dekada VIII – I dekada IX)	Sharsimon-zich	Chidamlili	Chidamlili	1 yil hosil beradi, 1 yil hosil bermaydi	1,2	Janubiy Tojikistonning tabiiy ekmlari (Tereklit tizmasi), d.s. dan 900-1100 m
S-172	Orzu	Chillaki (5-7. IV)	Chillaki (I-II dekada VIII)	Keng taryaqav-lagan, panjara-simon	Nihovatda chidamlili	Nihovatda chidamlili	3 yil hosil beradi, 1 yil hosil bermaydi	1,5	Janubiy Tojikistonning tabiiy ekmlari (Tereklit tizmasi), d.s. dan 900-1100 m
521-P	Uzbekistan	O'rta (12-15.IV)	O'rta (II dekada VIII)	Keng taryaqav-lagan, panjara-simon	Chidamlili	Nihovatda chidamlili	2 yil hosil beradi, 1 yil hosil bermaydi	1,2	Janubiy Tojikistonning tabiiy ekmlari (Bobotog' tizmasi), d.s. dan 900 m

Introdutsiyalangan naylar

A-56	Urojaynava	Kechki (I dekada V)	Kechki (II-III dekada IX)	Sharsimon-zich	O'rtacha chidamlili	O'rtacha chidamlili	2 yil hosil beradi, 1 yil hosil bermaydi	1,8	Kavkaz (Apsheron, Azerbaydjan)
A-99	Apsheronskaya	Kechki (I dekada V)	Kechki (II-III dekada IX)	Keng taryaqav-lagan	Chidamlili	O'rtacha chidamlili	3 yil hosil beradi, 1-2 yil hosil bermaydi	2,0	Kavkaz (Apsheron, Azerbaydjan)
SI-5	Zorka	O'rta (II dekada IV)	O'rta (III dekada VIII)	Keng taryaqav-lagan, panjara-simon	Chidamlili	Chidamlili	2-3 yil hosil beradi, 1 yil hosil bermaydi	1,6	«Axvadi» eroniy navining urug'idan ko'paytiri
SI-10	Sitora	O'rta (II dekada IV)	O'rta (III dekada VIII)	Piramida-simon-daraxt-simon	Chidamlili	Chidamlili	3 yil hosil beradi, 1 yil hosil bermaydi	1,4	«Ibragimi» eroniy navining urug'idan ko'paytiri

Xulosa. Hozirgi yutimizda meva yetishtirish ayniqsa yong'oq, bodom va pistachilikda bir qator muommolar mavjud. Biz taklif qilayotgan usullar yordamida bumuommolar o'z yechimini albatta topadi.qisqa vaqt ichida ko'chat yetqazib berish, bu kochatlarning an'anaviy ko'chatlarga nisbatan tez hosilga kirishi orqali aholining mevalarga bo'lган тала bi qondiriliadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/3107036>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2030 yillarda O'zR qishloq xo'jaligini rivojlantirish to'g'risida”gi PF-5853 sonli farmoni. 28.01.2020 yil.



3. Бабикова А. В., Горпенченко Т. Ю., Журавлев Ю. И. Растение как объект биотехнологии // Комаровские чтения. – Вып. LV. – 2007. – С. 184-211.
 4. Бутенко Р. Г. Биология клеток высших растений *in vitro* и биотехнологии на их основе. – М.: ФБК-ПРЕСС, 1999. – 160 с.
 5. Глазко В. И., Глазко Г. В. Русско-украинский толковый словарь по прикладной генетике, ДНК-технологии и биоинформатике. – К.: Нора-принт, 2000. – 464 с.
 6. Глеба Ю. Ю., Сытник К. М. Клеточная инженерия растений. – К.: Наук. думка, 1984. – 160 с.
 7. Евтушенко А. Н., Фомичев Ю. К. Введение в биотехнологию: Курс лекций. – Минск: БГУ, 2002. – 105 с.
- Калинин Ф. Л., Сарнацкая В. В., Полищук В. Е. Методы культуры тканей в физиологии и биохимии растений. – К.: Наук. думка, 1980. – 488 с.
- Internet saytlari:
8. <https://farming.org.ua/>
 9. <https://semena.cc/blog/rejtingi-ovoshchnyh-kultur/luchshie-sorta-supersladkoj-i-sladkoj-kukuruzy/>
 10. <https://www.syngenta.ru/products/search/seed-vegetable/crop/sweet-corn>
 11. <https://agroserver.ru/b/kukuruza-zubovidnaya-419812.htm>
 12. https://en.wikipedia.org/wiki/Dent_corn
 - <https://extension.psu.edu/sweet-corn-production>